MAHALLA MARKAZI, TURAR JOYLAR VA KO‘CHALARINI KOMPLEKS QAYTA TIKLASH TAMOYILLARI VA LANDSHAFT YECHIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH BO’YICHA LOYIHA TAKLIFLAR

Kamalova Dilnoza Zayniddinovna Arx.f.b.f.d., professor:
kamalova.dilnoza@sdtu.uz
Doktorant: NurmuradovaYulduz Bazarovna
nurmurodova.yulduz@sdtu.uz
Samarqand davlat texnika universiteti

Annotatsiya: *Mahalla ansambllar, mahalla markazlari va shaharning tarixiy ko‘chalari to‘liq yagona yechimga olib kelish uchun ularga kompleks arxitekturaviy-funksional modernizatsiya qilinadi. Shu kabi modernizatsiyalar mahallarda xosil bo‘lgan turar-joylar muhitda ko‘p uchraydi. Bundan kelib chiqadiki, taklif qilinadigan yechim muvafaqiyatli qullanishi faqatgina mahalla markazlarining shaharsozlik muhitidagi modernizatsiyasining paralel olib borishi bilan bog‘liq.Tarixiy ko‘cha daxalarini tiklash va rekonstruksiya kilishda asosan ularning sifatiga urg‘u berib, milliy daxalarni, yarim yopiq muhitlarni piyodalar uchun barpo etib O‘rta Osiyo shaharlari namunasini ko’rsata olamiz.*

Kalit so’zlar: *Kompleks, shaharsozlik, mahalla markazi, taklif loyiha, arxitektura, ko’cha, me’moriy yodgorliklar, tarixiy obidalar.*

Аннотация: *Для того чтобы объединить ансамбли кварталов, районные центры и исторические улицы города в единое целое, они подвергаются комплексной архитектурно-функциональной модернизации. Подобные модернизации часто встречаются и в жилой среде кварталов. Следовательно, успешная реализация предлагаемого решения связана лишь с параллельной модернизацией районных центров в рамках градостроительной среды. При реставрации и реконструкции дач на исторических улицах можно подчеркнуть их качество, построить национальные дачи, полузакрытые пешеходные зоны и подать пример городам Центральной Азии.*

Ключевые слова: *Комплекс, градостроительство, районный центр, предлагаемый проект, архитектура, улица, архитектурные памятники, исторические памятники.*

Abstract: *In order to bring the neighborhood ensembles, neighborhood centers and historical streets of the city to a completely unified solution, they are subjected to a complex architectural and functional modernization. Similar*

modernizations are often found in the residential environment of neighborhoods. It follows that the successful implementation of the proposed solution is only associated with the parallel modernization of the neighborhood centers in the urban planning environment. In the restoration and reconstruction of historical street dachas, we can emphasize their quality, build national dachas, semi-closed areas for pedestrians, and set an example for Central Asian cities.

Keywords: *Complex, urban planning, neighborhood center, proposed project, architecture, street, architectural monuments, historical monuments.*

Kirish. Tarixiy shahar ko‘chalarini modernizatsiya muhiti qiyofasini o‘rganib chiqishda, shaharga shinamlik, insonni estetik va biologik qabul qilish, arxitektura landshaftiga e’tibor bergan bo’lamiz. Zich joylashgan tarixiy shahar turar-joy ko‘chalar strukturasining arxitekturaviy landshafti, shu shaharning yaxlit bosh rejasi, unda joylashgan mahalla ansambllari va unda yashayotgan aholi zichligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shuning uchun aholini shahar muhitiga estetik jalb qilib, avvalambor turar joylar zichligini inobatga olib, mahalla ansambllarning ko‘chalardagi rejaviy joylashuvi, kerakli joylashish masshtabini topib, badiiy ko’rkamligi hamda yangi qurilgan elementlarini ijobiy namoyon qilishda arxitekturaviy ansambllarni tabiiy kompanentlarini ko’rsatishimiz mumkin.

Tarixiy shahar ko‘chalarini arxitekturaviy dizayn, modernizatsiya qilishimizning asosiy sababi, insoniyatga tarixiy boyligimizni, tariximizni yaqqol ko’rsatib uni arxitektura bilan bog’lashdir.

Har bir shahar ko‘chalari o‘rganib chiqib, uni o’zining individual elementlari, qiyofasining yakkaligi hech qaysi shahar ko‘chalarida takrorlanmas qiyofasi bilan ajralib turadi. Bunday kichik arxitektura formalari osma soyabonlari, mayda do’konchalar, o’ziga xos favvorachalar shu ko‘chaning takrorlanmas yechimi bo’la oladi. Shu ko‘chada tanlangan qurilish materiallari, arxitekturaviy qiyofasi, dekorativ ranglari shu hamma elementlarda ko‘chalarning tarixiy an’anaviylikni berib, ko‘chaning xarakterini yaqqol namoyon qiladi.


Modernizatsiya qilinadigan arxitekturaviy landshaft, jamoat ko‘cha-yo’laklari bo‘shlig‘ida albatta mahalla ansambllari bilan bog‘lik bo‘lishi zarur.

Ko‘chalarning muhiti, maydonlar va kichik mahalla ansamlidagi hovlilarning landshaft yechim modernizatsiyasi, nafaqat chiroyli balki individual; an’anaviy qiyofaga ega bo‘lmog‘i zarur.

Muhitning individualligi; ko‘cha-yo’laklarning o’z stiliga va ushbu ko‘chaning monandligiga (kichik arxitektura modellarining ko‘klamzorligi)ga, original fazoviy muhit yechimiga, shu daxaning tabiiy asoslarni ishlatilishiga,

an’anaviy san’at va tarixiy turar joy asoslarning kompozitsion kichik arxitekturaviy ansambllariga urg’u berishga qaratilgan.

Ko‘chalar qurilish me’moriy-badiiy qiyofasining ikki tomonini, ya’ni shahar umumiy qiyofasini shakllantirishda ishtirok etuvchi tashqi qiyofasi hamda odamni bevosita o’rab turgan ichki qiyofasini alohida ko’rsatish mumkin. Masalan, umumiy tashqi qiyofasi asosiy magistral ko‘chalarga olib chiquvchi ko‘chalar atrof muhit bilan bog’langan bo’lishi kerak, chunki, bevosita o’rab turgan ichki qiyofasida esa, inson uchun yaratilgan barcha qulayliklar muhit bilan bog’lanishi ko‘zda tutiladi. Unda turar joy qurilishining tashqi qiyofasiga shaharning kattaligi, uning xalq xujaligi soxasida, geografik joylashishining xususiyatlari, me’moriy yodgorliklarning mavjudligi, mavjud turar joy binolarining holati va boshqalarga bog‘lik holda turlicha talablar qo’yiladi. Shaharning markaziy qismlarida ko‘chalar qurilishining me’moriy-badiiy qiyofasiga shahar markazi arxitektura ansamblining umumiy shaharsozlik g’oyasi kuchli ta’sir ko’rsatadi. Ko‘chalar qurilishining umumshahar jamoa va ma’muriy markazlari bilan birgalikda majmuada tashkil etish usuli keng tarqalgan.Shahar alohida mahallalar majmsuasidan iborat bo‘lgani kabi, mahallalar ham alohida uy egalarining majmualaridan iborat. Bunda shahar umumshahar jamoatchilik va madaniy markaz atrofida birlashgan turarjoy kvartallarining monostrukturasi bo’lsa, mahallalar va mahalla markazining atrofiga to’plangan xususiy ularning majmuasidan iborat.



1-rasm. Samarqand shahridagi Bog’imaydon1 va 2 mahallasining qayta tiklash loyihasi.(muallif tomonidan)

Keltirib o‘tilayotgan material mahalla markazlardagi ko‘chalarning shakllantiradigan va o‘rta asrlar shaharlarining shaharsozlik tizimi to’g‘risida ma’lum ma’lumotlarga ega bo‘lish imkonini beradi. Bularni yuzaga keltirgan shart-sharoitlar nimalardan iborat bo‘lgan va ular mahalla markazlarining tipologiyasi va shaharsozlik tizimining shakllanishiga qanday ta’sir o’tkazgan? Bu savolga javob berish uchun o’rganilayotgan obyektlarning evolyutsion rivojlanishiga bag’ishlangan bundan oldingi bo’limda keltirilgan bosqichni sinchiklab ko‘zatish va atroflicha to’xtalishning o’zi kifoya.

Yuqorida bayon etilgan ilmiy-nazariy va amaliy tahlillar asosida quyidagi umumlashtirilgan xulosalarga kelish mumkin:

Mahalla markazlari, turar-joylar va tarixiy ko‘chalarni kompleks qayta tiklash zamonaviy shaharsozlikning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u tarixiy-madaniy merosni saqlash bilan birga, hududlarning funksional va estetik jihatdan yangilanishini ta’minlashga xizmat qiladi. Ushbu jarayon fragmentar yondashuvni emas, balki mahalla ansamblini yaxlit shaharsozlik tizimi sifatida ko‘rib chiqishga asoslangan kompleks metodologiyani talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Pulatov X.Sh. O‘zbekiston arxitektura yodgorliklari. O‘quv qo‘llanma. TAQI, 2003.
2. O‘ralov A.,Qodirova T. O‘rta Osiyo arxitektura yodgorliklarining tipologik asoslari. –Toshkent, 2013.
3. O‘ralov A.,Saidov I.M. O‘rta Osiyo me’moriy yodgorliklari – vatanimiz tarixini o‘rganishning moddiy manbalari.-Samarqand,2009.
4. Ahmedov M.Q. O‘rta Osiyo me’morchiligi tarixi. Toshkent, “O‘zbekiston”, 1995 yil.
5. Jurayeva, E., Fayoza, O., & Baljan, X. (2024). Architectural Formation Processes of Karshi Fortress Areas. International Journal of Education, Social Science & Humanities, 12(3), 789-797.
6. Nurmuradova, Y., Jurayeva, E., & Odilova, F. (2024). Organization of Protection Gods in Historical Cities. Synergy: Cross-Disciplinary Journal of Digital Investigation (2995-4827), 2(4), 69-76.
7. Jurayeva, E., & Nurmuradova, Y. (2023). O’zbekiston Tarixiy obidalaridagi Bezaklar Tahlili. Arxitektura, Muhandislik Va Zamonaviy Texnologiyalar Jurnali, 2(10), 1-4.

8. Jurayeva, E., & Nurmuradova, Y. (2023). Architecture of Historical Monuments of Shahrisabz. Central Asian Journal of Arts and Design, 4(10), 6-10.

9. Elmuradovna, J. E. (2023). Tarixiy Shaharlardagi Chetel Maydonlarining Arxitekturasini Tahlil Qilish. Arxitektura, Muhandislik Va Zamonaviy Texnologiyalar Jurnali, 2(1), 20-26.

10. Nurmuradova, Y., Jurayeva, E., & Odilova, F. (2024). Organization of Protection Gods in Historical Cities. Synergy: Cross-Disciplinary Journal of Digital Investigation (2995-4827), 2(4), 69-76.

11. Jurayeva, E., & Nurmuradova, Y. (2024). Evolution of Timurid Tile Art. American Journal of Engineering, Mechanics and Architecture (2993-2637), 2(1), 45-48.

12. Nurmurodova, Y., & Jurayeva, E. Historical Preservation Theory Formation.

13. Nurmuradova, Y., & Odilova, F. Organization of Protection Gods in Historical Cities. Journal Of Digital Investigation, 2(04), 2024.

14. Jurayeva, E., Fayoza, O., & Yulduz, N. (2024). Formation of The Landscape Solution of The Railway Area and The Surroundings on The Basis of Local and Foreign Experiences. Innovative: International Multidisciplinary Journal of Applied Technology (2995-486X), 289-293.

15. Nurmuradova, Y., Baljan, X., & Oltinoy, B. (2024). Methods of Reconstruction and Restoration of Historical Cities. Synergy: Cross-Disciplinary Journal of Digital Investigation (2995-4827), 2(4), 64-68.

16. Yulduz, N., & Farxod o’g’li, O. F. (2023).Shahar Sohasidagi Modernizatsion Mazmunni Rejalashtirish. Problems of Architecture And Construction (Scientific Technical Journal), 1(2), 96-99.

17. Jurayeva, E., & Nurmuradova, Y. (2023). Architecture of Historical Monuments of Shahrisabz. Central Asian Journal of Arts and Design, 4(10), 6-10.

18. Nurmuradova, Y., Jurayeva, E., & Muxlisa, Y. (2025). Analysis of protected areas of historical cities. Web of Teachers: Inderscience Research, 3(2), 127-134.